



**PAXTA CHIGITI IFLOSLIGINI MOMIQ SIFATI VA CHIGIT YOG'DORLIGIGA
TA'SIRINI O'RGANISH**

Sarbarov Xusanboy Nurmamat o'g'li

Namangan muxandislik-texnologiya instituti, magistr

Qadam Jumaniyazov

Toshkent paxta sanoati ilmiy markazi t.f.dok. prof.

Annotatsiya; Ushbu ishda, momiqni iflosligi chiqindilarni chigitdan momiqqa mexanik tarzda o'tishi hamda arralarni chigit qobig'iga ta'sir ko'rsatkichida xosil bo'ladigan tolali terichalar hisobiga ortishi, yog'-moy sanoatiga kelib tushayotgan paxta chigitlarini iflosligi olinayotgan moy sifati va uni chiqish miqdoriga katta ta'sir ko'rsatishini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar; momiq iflosligi, chigit qobig'i, paxta chigitlarini iflosligi, yo'g-moy sanoati, chigit yog'dorligi, pnevmatik chigit tozalovchi qurulma.

Asosiy qism

Ma'lumki, paxtani qayta ishlash texnologik jarayonida uni chiqindilardan tozalash samaradorligini oshirish muhim o'rinni tutadi. Bu yo'nalishda paxta xom ashyosi va tolasini tozalash jarayonini tadqiq etish bo'yicha shu kungacha katta hajmdagi ishlar bajarilgan, yangi va takomillashtirilgan texnologik mashinalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularda foydalanish orqali, umuman olganda, paxta tozalash sanoatida ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar sifatiga bo'lgan talab qondiriladi.

Shu bilan bir qatorda linterlash texnologik jarayonidan oldin paxta chigitini chiqindilardan tozalash masalalariga, bizning nazarimizda, tadqiqotchilar tomonidan yetarlicha ahamiyat berilmagan. Chigitlarni chiqindilardan tozalash jarayoni samaradorligini oshirish orqali olinadigan momiq sifati va chigitni yog'dorligini oshirish mumkin bo'ladi, chunki bir qator tadqiqotchilar tomonidan momiq va chigitlarni sifat ko'rsatkichlari, birinchi navbatda, qayta ishlashga kelib tushayotgan chigitlar ko'rsatkichlariga bevosita bog'liqligi aniqlangan.

Momiq sifati qayta ishlashga kelib tushayotgan chigitlarni tukdorligi iflosligi va shikastlanish darajasiga bog'liq bo'lishi bilan bir qatorda linter mashinasini texnik holati va to'g'ri sozlanishiga ham bog'liq ekanligi ishda ta'kidlab o'tilgan.

Linterlash mashinalaridan foydalanishda to'plangan tajribalar va o'tkazilgan tadqiqotlar asosida ishda ishlab chiqarilayotgan maxsulot sifatiga qayta ishlashga kelib tushayotgan paxta chigit ko'rsatkichlaridan tashqari texnologik mashinani ishchi yuzalar turi, shakli va chigitlar massasini siljishi tasniflari ham ta'sir ko'rsatishi keltirib o'tilgan.

Momiqni iflosligi chiqindilarni chigitdan momiqqa mexanik tarzda o'tishi hamda arralarni chigit qobig'iga ta'sir ko'rsatkichida xosil bo'ladigan tolali terichalar hisobiga ortadi.


Ma'lumki, paxtani navi va terish usulidan qat'iy nazar organik chiqindilar chigitlarni umumiyl iflosliligini 32-39% ligini tashkil etadi. Chiqindini ma'lum qismi tola bilan chiqib



ketadi qolgani esa jinlangan chigitlarga o'tadi. Bir foizli iflosli paxtani jinlashda chigitlar iflosligi 0.57%, organik chiqindilar miqdori esa 0.46% ni tashkil etadi.

Chiqindilar miqdorini kamaytirish orqali momiq sifatini oshirish uchun chigitlar linterlash texnologik jarayonidan oldin pnevmatik va mexanik tozalagichlarda ketma ketlikdagi tozalashdan o'tadilar.

Pnevmatik chigit tozalovchi qurulmani ishlash tamoyili markazdan qochma vintelyatorlar hosil qilayotgan havo oqimi bilan so'rish orqali chigitlarni tashishdagi chiqindilar va chigitlar tezligini farqlanishiga asoslangan. 1.8-rasm.




1-vakum-klapan; 2-ajratuvchi kamera; 3-sozlanuvchan plastina; 4-quvur; 5-qabul qiluvchi tarnov-ta'minlagich; 6-qabul qiluvchi teshik tirqishi; 7-sozlanmaydigan plastina; 8-taqsimlovchi vintli vintly konveyer; 9- vintli yig'ma konveyer

1.8-rasm. USM-A chigit tozalash qurilmasi

Paxta chigitlarnini birlamchi holatlariga bog'liq holda bu qurulma orqali ajratilgan chiqindilar massasi chigitlarni birlamchi massasini 0.2-0.4 % ni tashkil etadi. Chiqindilardagi chigitlarni (butun, singan) va tolali materialning miqdori, mos ravishda 18.3-19.5 va 11.5-55.6% tashkil etadi. Pnevmatik chigit tozalagichning asosiy kamchiligi – mayda chiqindilar bo'yicha tozalash samaradorligini pastligi bor yo'g'i 21-26% hamda o'rnatilgan nisbatan katta quvvat (12.80 kvt.) va qurulmani aerodinamik ish tarkibini muntazam sozlab turulishi zarurligi. Bunday kamchiliklar paxta tozalash sanoati talablarini umuman qondirmaydi.

SM rusumidagi mexanik chigit tozalagichini (1.9-rasm) ishlash tamoyili paxta chigitlarini aylanuvchan qoziqli barabanlar va to'rili yuzalar bilan o'zaro ta'siri xisobiga chiqindilarni ajralib chiqishiga asoslangan. Chigit tozalagichlarni ishidagi asosiy ko'rsatkichlar bo'lib tozalash samaradorligi va tozalangan materialni chiqindilarga yo'qotishlar xisoblanadi, ammo yuqorida keltirilgan chigit tozalagichlardan paxta tozalash korxonalarida samarali foydalanimayapdi, xattoki ba'zi xollarda ular ishlatilmay kelinmoqda. Bu esa olinayotgan momiq va chigit sifatiga so'zsiz salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.



1-qoziqli-plankali baraban; 2-to'rli yuza; 3-vintli konveyer

1.9-rasm. SM mexani chigit tozalagichi

O'z DSt 645:2010 „paxta momig'i. texnik talablar” O'zbekiston davlat standartiga ko'ra, masalan, birinchi navli A va B turdag'i momiq uchun chiqindilar va butun chigitlarni sinflar bo'yicha massali ulushi - "oliy" uchun u 4.4% dan, "o'rta" uchun 6.2% va „ifloslik" uchun 8.5% ni tashkil etishi kerak. Shuningdek, O'z DSt 599:2008 „ Texnik chigitlar. Mineral va organik qo'shimchalarni massaviy aniqlash usuli ". O'zbekiston Davlat Standartiga ko'ra mexanik va organik qo'shimchalarining massali ulushi 5% dan ortiq bo'lishi kerak emas.

Bunday talablar ko'pincha paxtani qayta ishlashni reglamentlangan texnologik jarayonini buzulishi sababli Respublika paxta tozalash korxonalarini ishlab chiqarish sharoitlarida bajarilmaydi.

Ma'lumki linterlash texnologik jarayonidan so'ng texnik chigitlar yog'moy sanoatiga paxta yog'i olish uchun jo'natiladi. Yog'moy sanoatiga kelib tushayotgan paxta chigitlarini iflosligi olinayotgan moy sifati va uni chiqish miqdoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu yerda paxta chigit organik va mineral qo'shimchalardan turli hil usullar va texnologik mashinalar yordamida, katta sarf xarajat va vaqt sarflab qayta qo'shimcha tozalashga majbur bo'linadi. Chunki chigitni qayta ishlashda chiqindilardagi mavjud moyda eriydigan ba'zi moddalar olinayotgan moy sifatini keskin pasaytirib yuboradilar, ya'ni yog'ga xos bo'lмаган xid va ta'm paydo bo'ladi, rangini ma'lum darajada qorayishi bilan uni kislotaliligi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жуманиязов К. Создание системы транспорта и распределения средневолокнистого хлопка по поточным линиям очистки и батареям джинов. Дисс. канд.техн. наук. Т., 1989.
2. Melnikova O. A. Vintli konveyer. Mualliflik guvohnomasi N846441



3. Urmonovich N. O. MANGOSTEEN NUTRITIONAL PRICE AND FUNCTIONAL PROPERTIES //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 14. – №. 5. – С. 3-5.
4. Davidboyev B. ko'tarish tashish mashinalarini loyihalash. Darslik. T: O'zbekiston. 2001.
5. Urmonovich, Numonov Otabek. "MANGOSTEEN NUTRITIONAL PRICE AND FUNCTIONAL PROPERTIES." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 14.5 (2023): 3-5.
6. www.cotton.com
7. www.sifat.uz